

---

## JURNALISTLAR QAYRAG'OChDA

Press tur

Davlatimiz rahbarining Sirdaryo viloyatining og'ir tumani hisoblangan Sayxunobodga tashrifi, bu yerda aholi daromadlarini oshirish bo'yicha Prezident tashabbusi asosida yaratilayotgan tajriba—davlat uy xo'jaliklariga o'z imkoniyatlarini to'liq ishga solishga ko'maklashishi tamoyili ayni kunda butun respublika viloyatlari, barcha mahallalarda amalda qo'llanilmoqda. Yuqoridagi tashabbus asosidagi ishlar mahallalarga biriktirilayotgan tijorat banklari mas'ullari, joylardagi hokim yordamchilari ko'magida tashkillanmoqda. Bunda saralangan xonadonlarda daromad manbaini yaratish, tomorqa madaniyatini shakllantirish, sabzavot-poliz mahsulotlari yetishtirish, ko'chat o'tqazish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, qolaversa aholiga savdo va xizmat ko'rsatish, bo'sh turgan binolardan samarali foydalanish ishlariga mas'ullar shaxsan javobgar bo'lmoqda. Bugun bir guruh jurnalistlar va imjtimoiy tarmoq faollari "Qayrag'och" mahallasida olib borilayotgan ishlar bilan tanishishdi.

2025-02-13 15:13:05